



Korxonalar va tashkilotlar

(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-sentabr holatiga

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– sentabr holatiga


2018 yilning yanvar-sentabr oyida Respublikada 42,8 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,0 mingtaga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,3 % ga kamaygan hamda ularning soni 6,6 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 31,1 mingta (10,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 316,7 mingtani tashkil etgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida 21,3 %, Toshkent 9,6 %, Farg'ona 9,0 % va Andijon 8,5 % viloyatlarida kuzatilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Korxonalar va tashkilotlar

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
O'z. Respublikasi	331,2	100	316,7	100
Qoraqalpog'iston. Resp	15,7	4,7	15,2	4,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	28,5	8,6	27,0	8,5
Buxoro	18,5	5,6	17,6	5,6
Jizzax	14,5	4,3	13,8	4,4
Qashqadaryo	21,1	6,4	20,6	6,5
Navoiy	11,0	3,3	10,8	3,4
Namangan	22,1	6,7	21,0	6,6
Samarqand	25,3	7,6	24,2	7,6
Surxondaryo	16,2	4,9	15,6	4,9
Sirdaryo	10,9	3,3	10,1	3,2
Toshkent	34,3	10,4	30,4	9,6
Farg'ona	28,8	8,7	28,4	9,0
Xorazm	15,4	4,7	14,7	4,6
Toshkent sh.	68,9	20,8	67,3	21,3


Korxonalar va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,9 % savdoda, 17,4 % sanoatda, 8,9 % qurilishda, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi



Korxonalar va tashkilotlar

2018 yil yanvar-sentabr holatiga 42796 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 30,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (9420 ta), Toshkent (4200 ta), Samarqand (3641 ta) va Farg'ona (3445 ta) viloyatlarida tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (1172 ta), Navoiy (1641 ta) hamda Xorazm (1775 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.


Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (8804 ta), sanoatda (8538 ta), qurilishda (4928 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4533 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (937 ta), axborot va aloqada (945 ta) hamda tashish va saqlashda (1528 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-sentabr holatiga.	2018 yil yanvar-sentabr holatiga.
Jami:	32774	42796
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4313	4533
Sanoat	8262	8538
Qurilish	3057	4928
Savdo	6284	8804
Tashish va saqlash	1388	1528
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2762	2925
Axborot va aloqa	797	945
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	670	937
Boshqa turlari	5241	9658

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktabr holatiga 259,2 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 72,4 mingta, oilaviy korxonalar – 14,7 mingta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 164,3 mingta, va boshqalar 7,8 mingtani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


2018 yil 1 oktabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6960 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 1590 taga yoki 29,6 % ga o`sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 3764 tasi qo`shma korxonalar, 3196 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Korxonalar va tashkilotlar

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 4394 ta (63,1 %), Toshkent viloyati 782 ta (11,2 %) va Samarqand viloyatlari 376 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 66 ta (0,9 %), Qashqadaryo viloyati 72 ta (1,0 %), Navoiy viloyati 90 ta (1,3 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi 109 ta (1,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


Korxonalar va tashkilotlar

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2818 ta (40,5 %), savdoda 1484 ta (21,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1180 ta (16,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 90 ta (1,3 %), axborot va aloqada 181 ta (2,6 %), tashish va saqlashda 207 ta (3,0 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 286 ta (4,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 289 ta (4,2 %) va qurilishda 425 ta (6,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlar

2018 yilning yanvar-sentabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 1659 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1073 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 306 ta, Turkiya Respublikasi – 260 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-232 ta, Qozog'iston Respublikasi – 188 ta, va Koreya Respublikasi – 129 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-sentabr holatiga) birlikda



Korxonalar va tashkilotlar

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 508 ta, savdoda 444 ta, qurilishda 159 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 133 ta va boshqa faoliyat turlarida 415 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktabr holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 257,1 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktabr holatiga qaraganda 11,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 58,1 mingtasi (22,6 %) Toshkent shahriga, 24,8 mingtasi (9,7 %) Toshkent, 22,6 mingtasi (8,8 %) Farg'ona hamda 22,3 mingtasi (8,7 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 257,1 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 68,9 mingtasi (26,8 %) – savdoda, 54,5 mingtasi (21,2 %) - sanoatda, 28,0 mingtasi (10,9 %) - qurilishda, 23,4 mingtasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 19,1 mingtasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12,8 mingtasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 6,6 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 5,2 mingtasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 38,7 mingtasi (15,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-sentabr holatiga 38,1 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 23,6 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (8899 ta), Toshkent (3879 ta), Samarqand (3250 ta) va Farg'ona viloyatlarida (2930 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (1044 ta), Xorazm (1510 ta) hamda Navoiy (1421 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (8798 ta), sanoatda (8530 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4511 ta) va qurilishda (4921 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (922 ta), axborot va aloqada (940 ta) hamda tashish va saqlashda (1524 ta) tashkil etilgan.

Korxonalar va tashkilotlar


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 oktabr holatiga 15332 tani tashkil etib, ulardan 14748 tasi yoki 96,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **27,0** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Korxonalar va tashkilotlar

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 37,2 % yoki 5493 tasi sanoat, 21,4 % yoki 3360 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,4 % yoki 2419 tasi savdo, 11,4 % yoki 1684 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 186 tasi qurilish, 1,1 % yoki 156 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 168 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 161 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,0 % yoki 1321 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Davlat statistika qo'mitasi
Statistik registrlarni yuritish va tizimli
xizmat ko'rsatish boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
N. Sheraliev
(0371) 230-80-91,90

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan